

O'ZBEGIMNING ATLASI – O'ZBEGIM DURDONASI**M.Y.Suvonova***Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-8269-1931>Email: suvonova8100@gmail.com

ANNOTATSIYA: Milliy matomiz hisoblangan atlas tabiiy ipakdan tayyorlangan mahsulot hisoblanib, inson salomatligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tabiiy ipakdan tayyorlangan barcha mahsulotlar, dunyo bo'yicha eng raqobatbardosh mahsulotlardan hisoblanadi, shu o'rinda atlas matosi ham.

KALIT SO'ZLAR: Atlas, adras, ipak, milliy mato, abr, xon-atlas, libos, tola, ip, naqshlari, gullari, to'quvchilik, hunarmandchilik, paxta, arqoq ipi, ranglari.

Atlas-deganda ko'z oldimizda kamalak misoli, turli xil ranglarda, yal-yal yonib, jilolanib, ko'zni qamashtirib, nigohlarni o'ziga tortuvchi, bir lahzada rom etuvchi mato ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Aslida, bu matoga yuksak baho berishimiz va yuqorida berilgan ta'riflarimiz ham juda kam deb o'ylayman. Chunki, dunyo mamlakatlarini hech birida bunday antikvar **ATLAS** matosi bo'lmagan. Faqat bizning serquyosh O'zbekistonda, Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan ilk bor to'qilgan matodir.

Qadim tarixdan ma'lumki, yurtimizda chiroyi bo'yicha beqiyos bo'lgan yuqori sifatli matolardan ipak tolali matolar ishlab chiqarilgan. Bu matolar ilk o'rta asrlardan boshlab butun sharqda, Xitoydan qadim Movarounnahr, Buyuk Ipak yo'li o'tgan barcha mamlakatlarga savdogarlar tomonidan olib borilgan va shuhrat qozongan. Buxoro va Samarqandda ishlab chiqilgan matolarning shuhrati haqida X asr tarixchilari – Narshaxiy, Maqsudiy va boshqa muarrixlarning ma'lumotiga ko'ra, mahalliy matolarimiz Bog'dod, Xuroson, Suriya, Vizantiya, Misr mamlakatlarida xaridorgir bo'lgan. Mato ishlab chiqarish hunarmandchilikka asoslangan xalq hayoti, uning tarixiy taqdiri bilan bog'liq bo'lgan. XIX asrning o'rtalarida Buxoro, Marg'ilon, Namangan, Samarqand, Shahrisabz, Xo'jandda yuqori sifatli matolarning rang-barang turlari ishlab chiqarildi. "O'zbekimning Atlasi" nafaqat xalqning tarixiy o'tmishini aks ettiribgina qolmay, balki bugungi kunda erishilgan yutuqlarni ham o'zida mujassamlashtirgan. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, davlat qurilishi, iqtisodiy o'sish, madaniyat va san'at sohalaridagi muvaffaqiyatlar atlasda alohida yoritilgan. O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyingi yutuqlari, xalqaro maydonda erishgan muvaffaqiyatlari va jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlar shu atlasning ajralmas qismi bo'lgan.

Xususan, so'nggi yillarda O'zbekiston o'zining madaniy merosini asrab-avaylash, qadimiy obidalarni tiklash va ularni jahon miqyosida targ'ib qilish borasida katta

ishlarni amalga oshirdi. Atlasda bu jarayonlarning o'ziga xos yoritilishi, o'tmish va hozirgi zamonning uyg'unlashgan holda tasvirlanishi, O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosini dunyoga tanitish yo'lida amalga oshirilgan ishlarning natijasi sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekistonning tarixiy va madaniy boyliklari o'ta keng qamrovli va rang-barang. Ushbu atlas, nafaqat geografik hududlarni, balki har bir hududning o'ziga xos madaniyatini, san'atini, musiqasini, urf-odatlarini va xalqning ichki dunyosini ham o'zida mujassam etadi. Atlasdagi har bir sahifa orqali biz o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini, xalq musiqasi va san'ati, o'ziga xos til va adabiy merosiga chuqurroq kirib borish imkoniyatiga egamiz.

O'zbekistonning mashhur shaharlari — Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlari nafaqat geografik markazlar, balki ilm-fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida ham tarixda alohida o'rin tutgan. Ushbu atlasda bu shaharlarning o'ziga xos tarixi, arxitekturasini, qadimiy obidalarini va jahon madaniyati uchun tutgan o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan.

O'zbekiston viloyatlari o'rtasida Farg'ona vodiysi milliy ipak matolarini ishlab chiqarishda alohida o'rin egallaydi. Marg'ilon va Namangan shaharlari ipak to'quvchilik an'anasining boy manbai hisoblanadi.

Marg'ilon atlasining nomi va turlari yetti iqlimga ma'lum va mashhur bo'lib ketdi. Shahar "Ipak shahri" deb nom oldi. Avvalo, shahar xalqining azaliy mashg'uloti bo'lgan atlas to'qish tarixiga to'xtalsak, ma'lumki, ipakchilik Marg'ilon shahrida qadimdan rivojlangan. Bu to'g'risida tarixchilarimizdan biri shunday deb yozib qoldirgan: "Marg'ilonida to'qilgan bir darparda uchun Buxoroning butun yer xirojini bersa arziydi".

Haqiqatdan ham ipakchilarimiz o'z matolarini qadimdan dunyo bo'ylab namoyish etganlar. Ipakdan tayyorlangan tayyor mahsulotning eng jozibali, eng maftunkor matosi bu — atlasdir.

Atlas - arabchasiga tuksiz, tabiiy ipakdan to'qilgan, abr usulida rang-barang naqshlar bilan bezatiladigan bir yuzlamali mayin mato.

Atlasni dastlab to'qib chiqargan usta, undagi naqshlarni quyosh botishi paytida ufqdagi taram-taram bulutlarning turlicha tovlanishidan olgan, degan rivoyat bor. Shuning uchun ham qadimdan atlas va adras matolari "Abr" matolari deb nomlangan. Zero, "Abr" so'zi forscha bo'lib, bulut degan ma'noni anglatadi.

O'rta Osiyodagi xalq og'zaki ijodi asarlaridagi afsonalarda abr naqshlarini kelib chiqishi yoritilgan. Afsonalarning birida aytilishicha, abr naqshlarini ilk bor osmondagi bulutlarni hovuz yuzasidagi aksiga taqlid sifatida yaratilgan. Yana bir afsonada esa hovuzga to'kilgan yog'ni yoyilishiga va kamalak rangiga qiyoslashgan. To'qilish turiga qarab abr matolari 2-guruhga bo'linadi: adras va atlas.



Atlas tabiiy ipakdan to‘qiladi. Adrasda tanda ipi ipakdan, arqoq ipi paxta ipidan tayyorlanadi. Marg‘ilonlik usta Mirzokirovni aytishicha, 1856 yil ilk bor atlaslar Qo‘qon xoni Xudoyorxon buyurtmasi asosida to‘qilgan. Shuning uchun ham ular “xon-atlas” deb ataladi. Bugungi kunga kelib esa atlaslar turli xil nomlar bilan aytiladi. Nomlar to‘quvchi ustaning kompozitsiyasidan kelib chiqib nomlanadi. Masalan: Anorgul, Kiprik, Chumoli, Tumorcha, Kosagul, Sirg‘a, Tomchi va boshqa nomlar bilan ataladi.

Atlas matolarining naqshlarini bir necha guruhga bo‘lsa bo‘ladi: eng ko‘p uchraydigan bu kundalik buyumlar, o‘simliklar va jonzotlardan tarkib topgan. Undan tashqari geometrik shakllar, ya‘ni aylana, romb, to‘g‘ri va egri chiziqlardan ham tashkil topgan. Shuni aytish kerakki, fakat geometrik shakllar aniq ko‘rinadi, qolganlari shunchalik ramziyki, qiyinchilik bilan o‘qiladi.

Bugungi kunda zamonaviy kiyimlarni ipak matosiz tasavvur qilish qiyin. Adras va atlas matolaridan tikilgan kiyimlarni tantanali marosimlarda, nikoh to‘ylarida, milliy bayramlarda va hatto harbiy yurishlarda ham kiyilgan. Hatto Iskandar Zulqaynarning harbiy askarlari jasurlik va jasorat belgisi sifatida moviy rang ipakdan tikilgan ustki kiyimlarda yurishgan. Bir vaqtlar milliy kiyimlarimizni yo‘qotib yuborishga harakat qilingandi. Atlas kuylak, chopon, do‘ppi kiyimaslik kerakligi bot-bot takrorlanardi. Lekin mustaqilligimiz tufayli, yuragimizdagi ajdodlarimizning yodi, ularga bo‘lgan hurmatimiz bois, milliy qadriyatlarimizni saqlab qolgan holda yana milliy kiyimlarimizga qaytdik. Milliy liboslar milliy madaniyatimizning bir bo‘lagi ekanligini bugungi kunda ko‘pchilik tushunib yetyapti. Shunday ekan, biz har yili bahor faslida Qarshi Davlat Universitetida o‘tkazib kelayotgan “Atlas kuni” bayramida aynan ana shu milliy kiyimlarimiz orqali ham, an‘ana va qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmatimiz namoyon etilgan. Bu bayramdan asosiy maqsadimiz, yoshlarimizni qadriyatlarimizni ulug‘lashga, ularni asrab-avaylashga, milliy matolarimizga bo‘lgan hurmatlarini yanada yuksaltirishga qaratilgandir. Aynan o‘zim Atlas bayramini tashkilotchisi sifatida talabalarimizga milliy matomiz, millatimiz ko‘zgusi hisoblangan atlas matosini keng targ‘ib qilish oldimda turgan muhim vazifalarimdan biri deb hisoblayman.

O‘zbekim durdonasi, o‘zbek matosi hisoblangan atlasimizning dovrug‘i butun dunyoga taralgan va bu bilan biz faxrlansak arziydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xasanboyeva G.K. Libos dizayni. Ma'ruza matni -T.: TTESI, 2011.
- 2.X.X.Kamilova,N.A.Isaxojayeva, K.R.Fuzailova “Kostyum kreativ grafikasi”2017.
- 3.Xasanboyeva G.K. , Krimova O.I. “Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash” T. “O’qituvchi”, 1990. TTESI.
- 4.Xasanboyeva G.K. “Kompozitsiya asoslari” Ma’ruza matni.